

CHET TILLARINI O'QITISH METODIKASINING AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI

Aliyeva Navro'za

Qoraqalpoq davlat universiteti jurnalistika fakulteti 2-bosqich talabasi

Daryayeva Sevara

Guliston davlat universiteti filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7024324>

Annotatsiya. Bu maqolada biz chet tilini o'rganish qay darajada muhimligini va u biz uni o'rganib qanday imkoniyatlarga ega bo'lishimiz haqida so'z boradi. Shuningdek ta'lim dargohlarida chet tilini o'qitish metodikasi qanday olib borilishi va qanday o'qitilishi haqida bilib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: globallashtiruv jarayoni, ajnabiy musiqalar, xorij filmlari, chet tilini o'qitish metodikasi, boshlang'ich bosqich, o'rta bosqich, yuqori bosqich.

ПРЕИМУЩЕСТВА И ВОЗМОЖНОСТИ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В этой речи идет о том, насколько важно выучить иностранный язык и какие возможности мы можем получить, изучая его. Вы также можете узнать о методике преподавания иностранного языка в учебных заведениях и о том, как его преподают.

Ключевые слова: процесс глобализации, зарубежная музыка, иностранные фильмы, методика обучения иностранному языку, начальный уровень, средний уровень, продвинутый уровень.

ADVANTAGES AND POSSIBILITIES OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODS

Abstract. This speech is about how important it is to learn a foreign language and what opportunities we can get by studying it. You can also learn about the methods of teaching a foreign language in educational institutions and how it is taught.

Keywords: globalization process, foreign music, foreign films, foreign language teaching methods, elementary level, intermediate level, advanced level.

KIRISH

Til o'rganish kishilik jamiyatida muhim sohalardan sanaladi. Ayniqsa bugungi kunda chet tillarini bilish xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Nega chet tilini o'rganish kerak? Axir barcha chet tillaridagi filmlar va kitoblar o'zbek tiliga ham tarjima qilinyaptiku? Albatta bu savol hammada tug'iladi. Chet tilini bilish xorijiy filmlar va kitoblarni asliyatida ko'rish imkonini beradi. Ajnabiy musiqalarini shunchaki emas tushunib tinglashga ko'nikasiz. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoq orqali ma'lumot izlaganizda boshqalarga qaraganda 10 marta ko'proq bilimga ega bo'lasiz. Globallashtiruv jarayoni shitob bilan o'zgarib borayotgan davrda avvalgidek masofa katta rol o'ynamaydi. Yildan-yilga sayohat qiluvchilar soni ortyapti. Bunda esa chet tillarini bilish muhim. Til o'rganish fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi. Britaniyalik olimlarning aniqlashicha, 2-tilni o'rganish miyaning nutqiy ravonlikni ta'minlovchi qismini rivojlantiradi. Til o'rganishga qancha erta kirishilsa, ravon va chiroyli gapirish ham shuncha yaxshilanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Chet tili metodini o'qitish deyilganda esa, chet tili o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuyi tushuniladi. Har bir fanda o'z tushunchalar yig'indisi mavjud. Chet tili metodikasida ham qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta'lim sistemasi, ta'lim metodi, ta'lim prinsipi, ta'lim vositasi va metodik usul. Chet tili muallimligini tanlaganlar zimmasiga ushbu tilning o'qitish nazariyasidan mukammal xabardor bo'lishdek vazifa yuklanadi. O'qitish ilmini metodika fani yoritadi, bu so'zning ma'nosi esa "Biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmuyi" deganidir. Chet tillari o'qitish metodikasi, professor Mixail Vasilyevich Lyaxoritский ta'riflashicha, ta'limning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet tili yordamida ta'lim-tarbiya berish usullarini tatbiq etishdir.

O'rta umumiy ta'lim maktablarida chet tili metodikasi fani o'quvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- 1) kelajak kasbiy faoliyatiga puxta nazariy zamin tayyorlaydi;
- 2) ta'limning zamonaviy metodlari;
- 3) o'quvchilarning olgan metodik bilimlarini amaliyotda samarali qo'llay olishi uchun ko'nikma va malakalar hosil qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Metodika institut (universitet) da berilgan bilimlar yig'indisi bilan maktab tajribasi orasidagi "ko'prik" vazifasini o'tovchi fandır. Leksiya va amaliy mashg'ulotlarda chet tili o'qitish qonuniyatlari bayon etiladi, metodika faniga ta'limning xususiy nazariyasi sifatida qarash shakllantiriladi. Talaba metodika kursini o'tar ekan uch toifa mashg'ulotlarga ishtirok etadi: Oliy o'quv yurti dasturi asosida leksiylar majmuyini tinglaydi; amaliy-metodik saboqlar oladi va o'quv mashg'ulotlarida ilm bilan mashg'ul bo'ladi. 3-ish turida dars berishadi va darsdan tashqari tadbirlar o'tkazishadi.

Chet til o'qitishni tahskil etishda an'anaviy uch bosqich: boshlang'ich, o'rta va yuqori nomlarini olgan. Shu bilan bir paytda, chet tilda nutq malakalarini hosil qilish pallalarini shartli ikki jarayon deb ham tan olish ham mantiqan maqbuldir. Birinchisida tashkiliy, ikkinchisida esa nutqiy bosqichlarni farqlashga duch kelinadi.

MUHOKAMA

Birinci bosqichda o'quvchilarning barqaror eshituv-talaffuz ko'nikmalari shakllantiriladi. Til birliklarining eshitish-harakat timsollarini hosil qilish yo'lida gapirish va ovoz chiqarib o'qish ko'p mashq qilinadi. Bu bosqichda o'quvchilarning muallimning hikoya va ko'rsatmalarini tinglab tushuna olishlari, o'rgangan til materiali asosida rasmga qarab gapirib berishlari, matn mazmunini aytib berishlari, o'tgan mavzular bo'yicha suhbat qura olishlari, matnni o'qib tushunish talab qilinadi.

Ikkinchi bosqichda aktiv,leksik va grammatik materialni o'rganish davom etadi. Og'zaki nutq yetakchi amaliy maqsad va muhim ta'limiy vositalardan biri maqomini saqlab turadi. O'qishning malaka sifatida mavqeyi o'zgaradi, u asosiy amaliy maqsad darajasiga chiqib boshlaydi. Yozma matndan qiziqarli va foydali axborot olishga e'tibor oshadi. Xullas, og'zaki nutq va o'qish malakalariga sarflanmish kuch va vaqt baravarlashadi. Ikkinchi bosqichning oxirida o'quvchilar berilgan mavzular bo'yicha og'zaki bayon eta olish yoki o'qilgan matn mazmunini aytib berish, suhbatda qatnashish va xat yozish malakalariga ega bo'ladi.

Uchinchi bosqichda esa qo'yiladigan talablar kuchayadi: matnning tili murakkablashadi, kitobiy uslubdagi yozma matnlar asosiy o'rinni egallaydi, moslashtirilgan parchalardan tashqari asliyatdagi matnlar o'qiladi. Badiiy adabiyotlardan olingan parchalarda tili o'rganilayotgan mamlakat hayotiga taalluqli ilmiy-ommabop matnlar salmog'i ko'paytiriladi. Matbuot (gazeta, jurnal) dan maqolalar tanlab o'qitiladi. Ular mutolaa turidagi o'qishga mo'ljallanadi. Yuqori bosqichda avvalgi bosqichlarda unchalik kuzatilmagan til o'rganishda onglilik kuchaytiriladi.

XULOSA

O'qish qoidalari, ma'lum ma'noda nazariy tartib (oddiy sistema) ga solinadi, yuqori bosqich o'quvchilari yangi so'zlarni mustaqil (yoki lug'atdan foydalanib) o'qiydilar. Grammatik bilimlar ham qoidalarda umumlashtiriladi, turli lisoniy jadvallar tuziladi va amaliyotda qo'llaniladi.

REFERENCES

1. Jamol Jalolov "Chet til o'qitish metodikasi "
2. Kilicheva Mehriniso, Ataboyev Nozimjon "Chet tili o'qitishning integrallashgan kursi"
3. Гадаев Р. Р., Джонизоков У. А., Ахадова К. С. К. ОПРЕДЕЛИТЕЛЬ ФРЕДГОЛЬМА ДВУМЕРНОЙ ОБОБЩЕННОЙ МОДЕЛИ ФРИДРИХСА //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 12 (59). – С. 6-8.
4. Ахадова К. С. О ГРУППЕ ИЗОМЕТРИЙ СЛОЕНОГО МНОГООБРАЗИЯ //Естественные и технические науки. – 2014. – №. 1. – С. 14-17.
5. Qizi A. K. S. TEXNIK OLIY TA'LIMDA MATEMATIKANING MUTAXASSISLIK FANLARI BILAN INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH VOSITALARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 446-459.
6. Akhadova K. S. PROBLEMS OF DEVELOPING MATHEMATICAL COMPETENCIES OF FUTURE ENGINEERS //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 3. – С. 316-323.